

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUVALIYEVA O‘G‘ILJON SHUXRAT QIZI

PASHTU TILIDA KOPULYATIV QO‘SHMA SO‘ZLARNING
STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UO‘K: 811.221.31
КБК: 81.2. P-4
A–13

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Abduvaliyeva O‘g‘iljon Shuxrat qizi

Pashtu tilida kopulyativ qo‘shma so‘zlarning struktur-semantik tasnifi 3

Абдувалиева Угилжон Шухрат кизи

Структурно-семантическая классификация копулятивных сложных
слов в языке пашто 23

Abduvaliyeva Ugiljon Shukhrat qizi

Structural and semantic classification of copulative compound words in
the Pashto language 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUVALIYEVA O'G'ILJON SHUXRAT QIZI

**PASHTU TILIDA KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLARNING
STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil1776 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash vebsahifasida (www.tsuos.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mannonov Abdurahim Mutalovich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirova Saodat Abdullayevna

filologiya fanlari doktori, professor

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili
va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko'chasi 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.Sh. Omonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b. filol.f.d., professor

R.A. Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻz yasalihi masalasi dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda. Bu masalaning dolzarbligi, ayniqsa, pashtu tili kabi kam oʻrganilgan tillar uchun ortib bormoqda, chunki bu masala tilning lugʻat boyligining zamon talabiga mos ravishda boyib borishi bilan bogʻlanib ketadi. Hayotning turli sohalaridagi taraqqiyot tufayli yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalash zarurati tilda mavjud boʻlgan imkoniyat va resurslar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish zaruratini tugʻdirmoqda. Bu jarayonni ilmiy asosda oʻrganish, uning yoʻnalishlarini aniqlash, oʻziga xos jihatlarni til materiali tahlili asosida belgilab berish bugungi kunda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Kopulyativ qoʻshma soʻzlarni tadqiq etish ana shu masalaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tilshunoslikda kopulyativ qoʻshma soʻz yasalihi hodisasi yaxlit holda oʻrganilmaganligidan, u bilan bogʻliq masalalar shu vaqtgacha aniq belgilanmagan va unga doir bir qator modellar hanuz eʼtibordan chetda qolib ketayotganligini koʻrsatadi. Bu modellarning ayrimlari haqida bildirilgan fikrlar esa turli ishlarda turlichadir. Kopulyativ qoʻshma soʻzlar, ularning turlari, modellari va ularga doir bir qator umumiy hodisalar yetarli yoritilmay, ularni tasniflash, berilgan taʼriflar, izohlar va hatto nomlanishida ham tilshunoslikda jiddiy farqlar, noizchiliklar koʻzga tashlanadi.

Pashtu tilida kopulyativ qoʻshma soʻzlarga oid masalalar baʼzi sharqshunos olimlarning grammatik ocherklarida qisqacha maʼlumot sifatida uchraydi, lekin ular orasida kopulyativ qoʻshma soʻzlar tahlili qisqa va oʻta umumiy tarzda qayd etiladi. Sanoqli nazariy tadqiqotlardan keyin oʻtgan vaqt davomida tilshunoslikda qoʻshma soʻz yasalihi, kopulyativ qoʻshma soʻzlar haqidagi gʻoyalar kengaydi, ammo uning pashtu tilida oʻrganish tasnifi hanuz oʻz aksini topmay kelmoqda. Agar masalaga oid tadqiqotlarning¹ bundan ellik yil oldin nashr etilgani hamda kopulyativ qoʻshma soʻzlar yasalihi masalasi pashtu tili leksikologiyasining umumiy masalalarining tarkibiy boʻlagi sifatida qaralgani va mazkur mavzuning alohida tadqiqot obyekti boʻlmaganligi hisobga olinsa, mavzuning afgʻon tilshunosligi uchun qanchalik dolzarb va muhim ekanligi maʼlum boʻladi. Pashtu tilidagi kopulyativ qoʻshma soʻzlarni tasniflashda yagona tizim yoʻqligi, termin qoʻllashdagi xilma-xilliklar, afgʻonshunos olimlar oʻrtasidagi farqli fikrlar, kopulyativ qoʻshma soʻzni boshqa kopulyativ birliklardan farqlash masalalari va mezonlari ishlab chiqilmaganligi, mazkur mavzuni monografik planda oʻrganish zaruratini taqozo etadi. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida «... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini ragʻbatlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish»² masalalarining ustuvor strategik yoʻnalish sifatida belgilab qoʻyilishi tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada kopulyativ

¹ Qarang: Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном пушту: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1967. – 22 с.; Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – М., 1972. – 142 с.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль. – № 28 (6722).

qo'shma so'zlarning struktur-semantik tasnifini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zlar yasaliş masalasi hozirgi kunga qadar alohida o'rganilmagan. Lekin pashtu tili grammatikasiga oid manbalarda so'z yasalişining mazkur usuli haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Xususan, R.R. Sikoev³, Z.M. Kalinina⁴, A.L. Gryunberg⁵ning ilmiy asarlari va grammatik ocherklarida kopulyativ qo'shma so'zlarga oid umumiy ma'lumotlar o'rin olgan. Mualliflar ot hamda sifat turkumiga oid kopulyativ qo'shma so'zlar haqida fikr yuritib, ularning faqat *و* *u* va *ا* *ā* interfikslari bilan yasalişhi yoki mazkur interfikslarning tushib qolishiga to'xtalib o'tishgan. Vaholanki, kopulyativ qo'shma so'zlar boshqa so'z turkumlarida ham mavjud va ular imperativ ko'rinishga ham ega. Ikki komponent o'rtasida boshqa interfikslar ishtirokiga oid ma'lumotlar esa ushbu tilshunoslarning ishlarida berilmagan. Shuningdek, mazkur olimlarning pashtu tilida qo'shma so'zlarga oid tadqiqotlarini o'rganish afg'on tilshunosligida qo'shma so'zlarni tasniflashning yagona tizimi mavjud emasligini ko'rsatdi.

N.A. Dvoryankov⁶, D.A. Shafeev⁷, K.A. Lebedev⁸ kabi rus sharqshunoslari ishlarida pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarga oid ma'lumot qo'shma so'zlar ichida so'z turkumi doirasida qisman ko'rib chiqilgan.

³ Sikоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном языке пушту: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1967. – 22 с.

⁴ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – М., 1972. – 142 с.

⁵ Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). – Л., 1987. – 240 с.

⁶ Дворянков Н.А. Язык пушту. – М., 1960. – 96 с.

⁷ Шафеев Д.А. Краткий грамматический очерк афганского языка (приложение к русско-афганскому словарю П.Б. Зудина). – М., 1963. – 108 с.

⁸ Лебедев К.А. Грамматика языка пушту. – М., 1970. – 360 с.

O‘zbek afg‘onshunosligida kopulyativ qo‘shma so‘zga oid monografik tadqiqot kuzatilmaydi. Faqat A.G. G‘anievning pashtu tilidagi fe‘l frazeologizmlariga bag‘ishlangan ocherkida ayrim misollar (“ot+bog‘lovchi+ot” + كېدل/كول modellariga oid) kopulyativ frazeologik birlik masalasida ko‘riladi⁹. Mazkur modellarning ot qismi kopulyativ qo‘shma so‘zlarga aloqador. Shuningdek, A.G. G‘aniev pashtu, dariy va fors tillaridagi qo‘shma so‘zlarning muammosi nazariy jihatdan hali ham yechilmaganligi, hal etilmaganligi va ularning yechimi qanchalik dolzarbligiga ishora qiladi.

A.Mannonov bir so‘zning takrorlanishi va sinonimik so‘zlarning yonma-yon kelishi badiiy-stilistik fon sifatida dastlab pashtu tilida XVI asrga tegishli yozma yodgorlik – “Hayr-ul-bayon” matnlarida uchraganligi haqida bayon etadi. Bu ko‘pincha غابىن - اور - نيران *or nirān* ‘olov-olov’, *ژبه او زبان* *ḡāṣ dandon* ‘tish-tish’ kabi sinonim so‘zlarning takrorlanishi bilan ifodalanadi. Mazkur misollarda ikki til: pashtu va fors tillaridagi so‘zlardan sinonimik juftliklar hosil bo‘lishi xarakterlidir va qoidaga ko‘ra, avvaliga pashtuncha so‘z, so‘ngra uning fors tilidagi sinonimi beriladi, bu esa, pashtuncha so‘zning ma‘nosini oydinlashtiradi¹⁰. Ammo bu kabi misollar kopulyativ qo‘shma so‘z emas, balki erkin kopulyativ so‘z birikmalariga tegishlidir, chunki bunday birikmalar so‘z yasamaydi ular adabiy janrlar va og‘zaki nutqda o‘ziga xos badiiy-stilistik usul sifatida keng ishlatiladi.

R.Inomxo‘jayev ham o‘z monografiyasida kopulyativ qo‘shma so‘zlar mavzusiga qisqacha to‘xtalib, pashtu tilida qo‘shma so‘zlarning determinatsiya, kopulyatsiya va reduplikatsiya usullari keng miqyosda qo‘llanilishi haqida ta‘kidlab o‘tadi. Mazkur monografiyada kopulyativ qo‘shma so‘zlarning ayrim jihatlari o‘rganilgan va mavzuga oid tadqiqotlar tahlili rus pashtushunoslarining tasnifini eslatadi¹¹.

Ingliz afg‘onshunoslari ham pashtu tili grammatikasi bo‘yicha qator ishlar olib borishgan. Ammo ulardan sanoqlilarigina pashtu tilida qo‘shma so‘zlar va ularning turlari yuzasidan ayrim fikrlarni bildirishgan. Xususan, Ernest Tramp pashtu tilidagi qo‘shma so‘zlarni tasniflashda hind tilidagi nomlanishlardan foydalanib, ularni to‘rt turga ajratadi: 1) kopulyativ qo‘shma so‘zlar (dvandva); 2) determinativ qo‘shma so‘zlar (tatpurusha); 3) tavsiflochi qo‘shma so‘zlar (karmadharaya); 4) possessiv qo‘shma so‘zlar (bahuvrihi). E.Tramp ot+bog‘lovchi+ot modelidagi birikmalarni grammatik jihatdan bitta so‘z sanalgani uchun kopulyativ qo‘shma so‘zlar deb hisoblaydi¹².

Anna Boyl Devid qo‘shma so‘zlarni umumiy qanday so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra qisqacha izoh berib o‘tgan va pashtu tilidagi ko‘plab qo‘shma otlar asosan fors tilidan olingan so‘zlardan kelib chiqqanligiga ishora qilgan¹³.

Afg‘on tilshunoslari tadqiqotlarida kopulyativ birliklar qo‘shma so‘zlar, erkin va turg‘un so‘z birikmalari kabi turlarga ajratilmaganligi kuzatildi. Kopulyativ qo‘shma

⁹ Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т., 1985. – 164 с.

¹⁰ А. Маннонов. Шарқшунослик масалалари. – Т., 2022. – 414 б.

¹¹ Inomxo‘jayev R. Pashtu tili grammatikasi. Monografiya. – Т., 2020. – 238 б.

¹² Trumpp E. Grammar of the Pashto or language of the Afghan. – London, 1873. – 120 p.

¹³ Boyle A.D. Descriptive grammar of Pashto and its dialects. – Germany, 2014. – 500 p.

soʻzlar esa odatda, qoʻshma soʻzlar boʻlimida soʻz turkumi doirasida oʻrganiladi. Pashtu tilining ilmiy-nazariy grammatikasini birinchilardan boʻlib yaratgan afgʻon olimi Sidiqullo Rishtin Afgʻoniston tilshunosligida ilk bor pashtu tilidagi qoʻshma soʻzlarni tarifi va tasnifini tegishli misollar asosida izohlashga harakat qilgan edi. U oʻz asarida arab, fors, urdu, qisman yevropa tilshunosligida soʻz yasalihi masalalariga doir fikr-mulohazalar, nazariy qarashlar asosida birinchilardan boʻlib pashtu tilining lugʻati tarkibi, tub va yasama soʻzlar, oʻzlashmalar, shu jumladan, juftlashgan soʻzlar doirasiga kiruvchi kopulyativ qoʻshma soʻzlar haqida oʻzining nazariy va amaliy fikrlarini bayon etgan¹⁴.

Sayid Taqvimul Haq, Xiyol Buxoriyning pashtu tiliga oid qoʻllanmalarida garchi soʻz yasalihi masalalariga eʼtibor berilsada, ammo kopulyativ qoʻshma soʻzlar haqida hech qanday kuzatish koʻrinmaydi^{15, 16}.

Mujovar Ahmad Ziyor esa qoʻshma soʻzlarni 3 turga ajratib, (کړولغونډونه جوړه) *karwalḡunduna jora* ‘kopulyativ’, (کړولغونډونه ټاکند) *karwalḡunduna ṭākand* ‘determinativ’ va (غبرگون) *ḡabargun* ‘reduplikativ’) ushbu turlarga izohsiz misollar berib ketish bilan kifoyalanadi¹⁷. Yuqorida keltirilgan tilshunoslarning tadqiqotlari tahlilida bir necha masalalar ochiq qolgan. Xususan, pashtu tilidagi kopulyativ aloqa mavjud boʻlgan birliklar (yaʼni kopulyativ qoʻshma soʻzlar, kopulyativ frazeologik birliklar, erkin kopulyativ soʻz birikmalari) va ularning farqlash masalalari; ularda modellarning mahsuldorlik darajasi qandayligi; pashtu tilidagi kopulyativ qoʻshma soʻzlarga qoʻyilayotgan mezonlar qay darajada ekanligi kabi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda pashtu tilida kopulyativ qoʻshma soʻzlar monografik planda tahlil etilmagani va ilmiy izlanishlarning hech biri toʻliq kopulyativ qoʻshma soʻzlarning tadqiqiga bagʻishlanmaganligi kuzatiladi. Bildirilgan fikrlardagi farq va noaniqliklarning sababi mazkur mavzuni tizimdagi boshqa hodisalardan ajratib kompleks ravishda avtonom struktura sifatida oʻrganilmayotganligidir. Ochiq qolgan masalalar hamda muammolarni tizimli oʻrganish, xususan, tasniflashda yagona tizmi yoʻqligi, termin qoʻllashdagi xilma-xilliklar, afgʻonshunos olimlar oʻrtasidagi farqli fikrlar, takror hamda juft soʻzlar bilan bogʻliq bahsli masalalar, modellarda kopulyativ qoʻshma soʻz, kopulyativ frazeologik birliklar hamda erkin kopulyativ soʻz birikmalarining qorishganligi, ularni farqlash masalalari va mezonlari ishlab chiqilmaganligi va mavjud boʻshliqni muayyan darajada bartaraf etish biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini oʻrganish va tilshunoslikning nazariy masalalari”, shuningdek, “Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: anʼanalar va hozirgi zamon ilmiy maktablari” mavzusidagi ilmiy yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pashtu tilidagi kopulyativ qoʻshma soʻzlarni struktur-semantik jihatdan ochib berishdan iborat.

¹⁴ ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه. کابل، ۲۰۰۴.

¹⁵ سيد تقويم الحق. قواعد پښتو. پيشاور، ۱۹۵۳.

¹⁶ خيل بخارى. د پښتو صرف او نحو. پيشاور، ۳۵۸ ص.

¹⁷ مجاور احمد زيار. پښتو پښويه. اکسفرډ، ۲۰۰۵. ۲۴۰ ص.

Tadqiqotning vazifalari:

afg'on tilshunosligidagi kopulyativ qo'shma so'zlarga oid tadqiqotlar tahlilini ilmiy masala sifatida kompleks o'rganish;

kopulyativ qo'shma so'zlarni o'xshash tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan kopulyativ birliklardan farqlovchi mezonlarni ishlab chiqish;

kopulyativ qo'shma so'zlarning struktur tiplari va modellarini ajratish;

kopulyativ qo'shma so'zning struktur-semantik tahlilini amalga oshirish;

kopulyativ qo'shma so'zlarning pashtu tili leksikasi rivojidadagi o'rnini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida hozirgi pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlar tanlangan.

Tadqiqotga manba sifatida pashtu tiliga oid lug'atlardan tanlangan misollar kartotekasidan foydalanildi¹⁸. Shuningdek, Akbar Barayning "د سپورمى سرتگه" ("Oy ko'zi") hikoyalar to'plami, Muhammadin Jvokning "پرونى هنداره" ("Kechagi oyna") asariga murojaat qilindi¹⁹.

Tadqiqotning predmetini pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarning struktur-semantik tasnifi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy, struktur-semantik, statistik va komponent tahlil metodlari asosida o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kopulyativ qo'shma so'zlarning kopulyativ birliklardan farqli 4 ta fonetik, 5 ta morfologik va 3 ta semantik belgilari aniqlanib, bular orasida morfologik belgining ustunligi asoslangan;

kopulyativ qo'shma so'zlarning 1 ta interfiksli (sifat+و u+sifat=ravish) va 1 ta interfikssiz (ravish+ravish=sifat) modellari hamda د də va ما mā interfikslari orqali ot+interfiks+ot=ot modeli asosida kopulyativ qo'shma so'zlar yasalishi aniqlanib, و u, ā, پə pə, پər pər, نا nā, تر tər, د də, را rā, ما mā interfikslarining 4 ta sinonimik va 1 ta antonimik qatori isbotlangan;

kopulyativ qo'shma so'zlar tarkibiy qismlarining joylashuvida 3 ta holat, ya'ni kam bo'g'inli tarkibning avval kelishi, bo'g'in soni bir xil bo'lsa, unli tovush bilan boshlanadigan tarkibning avval kelishi va har ikki komponent ham undosh tovush bilan boshlangan bo'lsa, jarangli portlovchi tovush bilan boshlanadigan qismi avval kelishi aniqlanib, so'nggi holatning mahsuldorligi dalillangan;

aksariyat kopulyativ qo'shma so'zlarning og'zaki nutq uchun xosligi ularning nominativ, ekspressiv, til/nutq vositalarini tejash kabi vazifalari orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zlarni kopulyativ birliklardan farqlovchi fonetik, morfologik va semantik belgilari aniqlangan;

kopulyativ qo'shma so'zlar interfiksli va interfikssiz kopulyativ qo'shma so'zlar kabi modellar asosida tasniflangan;

¹⁸ قلندر مومند، فرید صحرايي، پښتو لغت درياب. لاهور. ۱۹۹۴ کال؛ محمد هاشم رحيمي. پښتو انگلیسی قاموس. کابل. ۲۰۰۶ کال؛ خوشحال فولادي، فولادي اکسفورد انگلیسی پښتو قاموس. پېښور. ۲۰۰۹ کال؛

Асланов М.Г. Пушту-Русский словарь. – М., 1985. – 1008 с.; Лебедев К.А., Яцевич Л.С., Калинина З.М., Русско-Пушту словарь. – М., 1983. – 880 с.

¹⁹ اکبر بری. د سپورمى سرتگه. کابل. ۲۰۰۴م کال. ص-۷۷؛ څیرنمل ژواک. پرونى هنداره. کابل. ۱۳۵۷م کال. ص-۱۳۵.

interfiksli kopulyativ qo'shma so'zlarning sinonimik va antonimik qatori aniqlangan;

kopulyativ qo'shma so'zlarni kopulyativ birliklardan farqlovchi mezonlari yoritilgan;

kopulyativ qo'shma so'zlarning pashtu tili leksik qatlami rivojlanishidagi ahamiyati belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda fundamental ilmiy va metodologik maxsus adabiyotlarga tayanilganligi, tadqiqot usullarining til materiali, tadqiqot yo'nalishi va ilmiy izlanish mohiyatidan kelib chiqqan holda tanlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelganligi, xulosa hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy qarashlar pashtu tili grammatikasi bo'yicha nazariy adabiyotlarni yaratishda, darslik hamda qo'llanmalarni takomillashtirishda, maxsus kurslar uchun qo'shimcha materiallar berishda foydalanilishi, afg'on tilshunosligi, tarjimashunoslik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, undan "Asosiy o'rganilayotgan til (pashtu tili)", "Qo'shimcha sharq tili (pashtu tili)", "Pashtu tili grammatikasi", "Pashtu tilida so'z yasaliishi", "Pashtu tili leksikologiyasi", "Mutaxassislikning nazariy masalalari" kabi o'quv fanlaridan ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda sharqshunos-filologlar uchun maxsus kurslar tayyorlashda, o'zbek va pashtu xalqlari o'rtasida ijtimoiy-madaniy sohalaridagi aloqalarning rivojlanishiga hissa qo'shishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarning struktur-semantik tasnifini o'rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

kopulyativ qo'shma so'zlarning kopulyativ birliklardan farqli 4 ta fonetik, 5 ta morfologik va 3 ta semantik belgilari aniqlanib, bular orasida morfologik belgining ustunligi asoslanganligi hamda kopulyativ qo'shma so'zlarning 1 ta interfiksli (sifat+و u+sifat=ravish) va 1 ta interfikssiz (ravish+ravish=sifat) modellari hamda د də va ما mā interfikslari orqali ot+interfiks+ot=ot modeli asosida kopulyativ qo'shma so'zlar yasaliishi aniqlanib, و u, ا ā, په pə, پر pər, نا nā, تر tər, د də, را rā, ما mā interfikslarining 4 ta sinonimik va 1 ta antonimik qatori isbotlangan natijalar O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi elchixonasi xodimlari va tarjimonlariga, Afg'onistonda xizmat safarida yurgan xodimlar amaliyotida hamda turli xil ilmiy-amaliy tadbirlar doirasida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi elchixonasining 2023-yil 15-iyuldagi 003/605-son ma'lumotnomasi). Tahlil natijalari pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zlarni belgilash mezonlarini yaratishga asos bo'lgan;

pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlar tadqiqida tilshunos olimlar tomonidan bu sohaning o'rganilishi, kopulyativ qo'shma so'zlarning pashtu tili shakllanishidagi o'rni, ularning kopulyativ frazeologik birliklar hamda erkin kopulyativ so'z birikmalaridan farqli va o'xshash jihatlari va bularning sabablari haqidagi tahliliy

fikrlari va nazariy xulosalaridan Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida 2023-yil 27-iyul "Xalqlar do'stligi" kuni munosabati bilan tashkil etilgan "Do'stlik" festivaliga bag'ishlangan tadbirni tayyorlashda, shuningdek, qo'mitaning shu kabi boshqa madaniy-ma'rifiy sohalardagi tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2023-yil 22-avgustdagi 14-07-1072-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada keltirilgan kopulyativ qo'shma so'zlarning tadqiqi ularning pashtu tili leksik qatlami rivojlanishidagi o'rni va vazifalarini belgilash imkonini bergan;

pashtu tilidagi interfiksli va interfikssiz kopulyativ qo'shma so'zlar, kopulyativ frazeologik birliklar, erkin kopulyativ so'z birikmalari, juft hamda takror so'zlarning semantikasi, ularning xususiyatlari, qo'llanilishi, shuningdek, ularni tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan xato va kamchiliklarga bag'ishlangan tahliliy fikr va nazariy xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon" eshittirishlari senariylarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DMning 2023-yil 6-martdagi 04-36-356-son ma'lumotnomasi). Olingan natijalar tatbiqi ko'rsatuv va eshittirishning ilmiy dalillarga boy va ommabop bo'lishini ta'minlab, eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallar mazmuni yanada mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Tilshunoslikda kopulyativ qo'shma so'zlarni tasniflash muammolari" deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikda kopulyativ qo'shma so'zlar masalasining o'rganilishi, rus, o'zbek, ingliz va pashtu afg'onshunoslarining pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zga oid tadqiqotlari tahlili haqida so'z boradi.

Kopulyativ qo'shma so'zlar g'arb va sharq tilshunoslari ishlarida tez-tez ko'zga tashlanadi. Ammo, bu hodisaning mohiyati shu vaqtga qadar aniq belgilangani va bu masalada bir fikrga kelingani yo'q.

Qo'shma so'zni aniqlashda tilshunoslar turli mezonga asoslanadilar - ba'zilar faqat formal "universal" mezonga asoslansalar, boshqalari qat'iy ravishda semantik yoki funksional jihatdan yondoshadilar. Bir guruh olimlar kopulyativ qo'shma so'zlarni ularning yaxlitligidan kelib chiqib tadqiq etsalar, boshqalari komponentlarining morfologik tarkibini tavsiflash bilan cheklanadilar. Ilmiy asarlarda qo'shma so'zlar turlicha tasnif qilinadi va ularga berilgan tariflarda qo'llanilgan terminlarda ham farq bor. Xususan, qo'shma so'zga berilgan ingliz, rus va o'zbek adabiyotlaridagi tarifda ikki o'zakning qo'shilishi, yoki morfema yoki so'zning qo'shilishi kabi terminologik xilma-xil tariflar kuzatildi. Agar qo'shma so'zlarning bo'laklari sifatida so'zlar qatnashganida, ular birinchi navbatda o'z grammatik belgilarini saqlab qolishlari kerak edi. Ammo bu hodisa pashtu tilida kuzatilmaydi: birinchi bo'lagi so'zning eng muhim morfologik belgisi jins (rod) grammatik kategoriyasini boy beradi. Qo'shma so'zning jinsi ikkinchi komponent orqali aniqlanadi. Chunonchi, agar qo'shma so'zning bo'laklari ot bo'lsa, yangi so'z ikkinchi bo'lagi qanday jinsda bo'lishi bilan bog'liq ravishda muzakkar yoki muannas jinsdagi ot so'z turkumiga taalluqli bo'ladi.

Pashtu tilshunosligida qo'shma so'zlarni tasniflashda ko'proq yevropa an'analariga asoslanilganligi, shuningdek, sanskrit va so'z turkumlari kesimida ham tasniflanganligi kuzatildi. Aynan kopulyativ termini nafaqat afg'onshunoslar tadqiqotlarida, balki jahon tilshunosligida turlicha atalib kelinganligining guvohi bo'lishimiz mumkin (copulative, dvandva, additive aggregative, co-ordinate, appositional, two heads)²⁰. Albatta, terminologik va tasnif bilan bog'liq muammolar, foydalaniladigan mezonlarning bir-xil emasligi o'rganilayotgan til tabiati tufaylidir.

Pashtushunoslarning kopulyativ qo'shma so'zlarga oid tadqiqotlari tahlilida o'zaro o'xshashlik, farq va muammolar ham ko'zga tashlandi. Kopulyativ qo'shma so'zlarning "ot+ot=ot/sifat" "sifat+sifat=sifat/ot" modellari juda keng tarqalganligi va ushbu modellarda \int u/o yoki \int ā interfikslarining ishtirok etishi yoki etmasligi rus, o'zbek va ingliz pashtushunoslari tomonidan izohlangan bo'lsa, quyida ularning farqli jihatlari ham kuzatiladi. Xususan, pashtu tilidagi qo'shma so'zlar tasnifi borasida R.R.Sikoev ularni 3 guruhga (determinativ, possessiv, kopulyativ) bo'lib o'rgansa²¹, Z.M. Kalinina 2 guruhga ajratadi (kopulyativ va determinativ)²². A.L. Gryunberg esa qo'shma so'zlarning quyidagi 4 turini ajratib ko'rsatadi: kopulyativ, determinativ, predikativ, reduplikativ²³. R.Inomxo'jayev qo'shma so'zlarni 3 guruhga

²⁰ Olsen S. Copulative Compounds. A Closer Look at the Interface Between Morphology and Syntax, in «Yearbook of Morphology 2000». 2001. – 320 p.; Booij G. The Grammar of Words, Oxford University Press. – Oxford, 2005. – 308 p.; Bauer L. Compounding, in Haspelmath. Language Typology and Language Universals. Vol. I. Walter de Gruyter. – Berlin, 2001. – 707 p.; Scalise S., Bisetto A. The classification of compounds, University of Bologna. – Amsterdam, 2005. – 16 p; Haspelmath M. Understanding Morphology. – London, 2002. – 384 p.; Fabb N. Compounding, in Spencer A. and Zwicky A.M. (eds.) Handbook of Morphology, Blackwell. – Oxford, 1998. – 83 p.

²¹ Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном языке пушту: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1967. – 22 с.

²² Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. –Москва, 1972. – 142 с.

²³ Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашту). –Ленинград, 1987. – 240 с.

(determinativ, kopulyativ, reduplikativ) bo‘lib o‘rgangan bo‘lsa²⁴, E.Tramp ularni 4 guruhini (kopulyativ, determinativ, tavsifli (karmadharaya), possessiv) ajratib ko‘rsatadi²⁵.

N.A. Dvoryankov²⁶, D.A. Shafeev²⁷, K.A. Lebedev²⁸, L.S. Yatsevich va V.B. Ostapenko²⁹, Anna Boyl Devid³⁰lar esa qo‘shma so‘zlarni so‘z turkumi kesimida tadqiq qilishgan.

Pashtu tilidagi kopulyativ qo‘shma so‘zlardagi model va invariantlarga oid tadqiqotlarda boshqa olimlardan farqli o‘laroq A.L.Gryunberg kopulyativ qo‘shma so‘zlarning ko‘plikdagi “ot+ot” modelini misollar bilan izohlab, nisbatan kammahsul model ekanligiga ishora qiladi. Bunda umumlashtirish, jamlashtirish ma‘nolari kuchayadi: غرونه غاري - *gāre gārūna* ‘butun maydon’ (غاري *gāre* ‘qirg‘oq’, ‘etaklar’, غرونه *gārūna* ‘tog‘lar’). K.A. Lebedev و u, o bog‘lovchilaridan tashqari او *aw* bog‘lovchisi ham borligi va ot turkumiga mansub ikki so‘z او *aw* bog‘lovchisi bilan bog‘lansa, otlar o‘z ma‘nosi va tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan holda yangi hosila so‘z - qo‘shma so‘z hosil qilishini izohlab o‘tgan.

Tadqiqotlardagi muammo va noaniqliklarga to‘xtaladigan bo‘lsak, pashtushunos olimlarning terminlar qo‘llashida xilma-xilliklar kuzatildi. Xususan, kopulyativ qo‘shma so‘z tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lovchi elementning: kopulyativ element, bog‘lovchi element, bog‘lovchi unlisi, interfiks, biriktiruvchi bog‘lovchi/tenglik bog‘lovchisi bilan atalganligi kuzatildi. Tasniflar muayyan mezon asosida tuzilmagan. Tasnifda umumiy manzara paydo bo‘lmay, noaniqlik kuzatilgan. “Kopulyativ” termini qo‘llashning o‘zida ham olimlar o‘rtasida ikki guruhga ajralganlikni kuzatish mumkin, biri kopulyativ qo‘shma so‘zlar bo‘lsa, biri juft so‘zlar. Keltirilgan misollarning talqinida ham xilma-xilliklar kuzatildi: ناست ولاړ *nāst wlār* ‘tashvishli’ (so‘zma-so‘z: o‘tirish-turish), مرگ-ژوند *marg jwand* ‘taqdir’ (o‘lim, hayot), ليک لوست *lik lwast* ‘savodxonlik’ (yozish, o‘qish) kabi misollar E.Tramp tomonidan juft so‘zlar deb qaralsa³¹, A.L. Gryunberg kopulyativ qo‘shma so‘zlar sifatida talqin qiladi³². R.R. Sikoev bunday turdagi misollarni faqat antonim xarakterdagilarini kopulyativ deb sanaydi³³.

Shuningdek, A.L. Gryunberg takror qo‘llangan taqlidiy tovushlar yoki tasviriy elementlarning kopulyativ element و o orqali ifodalanishini (Masalan: اخ و توخ *ax-o-tox* ‘yo‘tal’, ‘xuruj’, كرس و كړپ *kars-o-kurp* ‘so‘kish’, ‘haqorat’) kopulyativ tip ichida berib o‘tadi. Ammo bu kabi misollar R.R. Sikoev tomonidan qo‘shma so‘zning alohida bir turi hisoblanishi kerak deb ta‘kidlanadi³⁴. Z.M. Kalinina va E.Trumpp

²⁴ Иномхоjayev R. Pashtu tili grammatikasi. Monografiya. –Т., 2020. – 188 b.

²⁵ Trumpp E. Grammar of the Pashto or language of the Afghan. – London, 1873. – 120 p.

²⁶ Дворянков Н.А. Язык пушту. – М., 1960. – 96 с.

²⁷ Шафеев Д.А. Краткий грамматический очерк афганского языка (в составе русско-афганского словаря П.Б. Зудина). – М., 1963. – 108 с.

²⁸ Лебедев К.А. Грамматика языка пушту, – М., 1970. – 360 с.

²⁹ Яцевич Л.С., Остапенко В.Б. Учебник языка пушту. – М., 2001. – 294 с.

³⁰ Boyle A.D. Descriptive grammar of Pashto and its dialects. – Germany, 2014. – 500 p.

³¹ Trumpp E. Grammar of the Pashto or language of the Afghan. – London, 1873. – 120 p.

³² Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). – Ленинград, 1987. – 240 с.

³³ Сикоев Р.Р. Парные слова в современном литературном пушту и их роль в словообразовании //Индийская и иранская филология. Вопросы грамматики. – М., 1976. – 192 с.

³⁴ Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном языке пушту: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1967. – 22 с.

bo'lsa otlarning cho'ziq | \bar{a} bog'lovchi elementi bilan takrorlanishi kopulyativ qo'shma so'z hosil qilishini talqin qilishadi³⁵. Ammo so'z takrorining kopulyativ element orqali bog'lanishi, bu kopulyativ qo'shma so'zni hosil qiladi, degan fikr qanchalik asosliliği aniq emas.

Pashtu tilida qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning tarkibi, tasnifi, kopulyativ qo'shma so'zlar masalalari Afg'oniston va Pokiston tilshunoslari tomonidan ham o'rganilgan. Bunga Afg'oniston va Pokistonda chop etilgan pashtu tili grammatikasiga oid qator asarlar, darslik va qo'llanmalardagi so'z yasalishi masalalaridagi tegishli qismlarni misol qilib keltirish mumkin. Ammo bu masalada nazariy izchillik, maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q. Masalan, Pokistonlik pashtu tili olimlari Sayid Taqvimul Haq³⁶ yoki Xiyol Buxoriyning³⁷ qo'llanmalarida garchi so'z yasalishi masalalariga e'tibor berilsa-da, ammo kopulyativ qo'shma so'zlar haqida hech qanday kuzatish ko'rinmaydi.

Sidiqullo Rishtin Afg'oniston tilshunosligida ilk bor pashtu tilidagi qo'shma so'zlarning tarifi va tasnifini tegishli misollar asosida izohlashga harakat qilgan edi³⁸. Rus olimi R.R. Sikoev S.Rishtinning bu asarini garchi yetarlicha va keng miqyosdagi tadqiqiy monografik asar darajasiga yetib bormaganligini eslatib o'tsa-da, lekin uni juda boy faktik til materiallarini qamrab olganligini ta'kidlagan³⁹. S.Rishtinning tadqiqida kopulyativ qo'shma so'zlar termini qo'llanilmagan, ammo unga doir misollar qo'shma so'zlar bo'limida so'z turkumi doirasida qisqacha misollar berib ketish bilan izohlangan. S.Rishtinning qo'shma ot bo'limida keltirgan misollari pashtu tilidagi qo'shma otlar ma'no munosabatiga ko'ra possessiv, kopulyativ va determinativ tiplarga bo'linganligini kuzatish mumkin. Ammo bu olim zikr etilgan terminlarni hech birini ishlatmagan. Uning keltirgan misollarida aynan determinativ, kopulyativ, possessiv qo'shma so'zlar kuzatiladi. Olimning so'zlarning takrorlanishi (تكراری کليمی *takrāri kalime*, ya'ni reduplikativ hodisasi) bo'limida komponentlar | \bar{a} , تر *tər*, په *pə*, نا *nā*, را *rā* kabi bog'lovchilar bilan bog'lanib, ba'zida bir ma'no uchun, ba'zida yangi ma'no uchun xizmat qilishi kuzatildi.

Purizmni yoqlovchi afg'on tilshunoslaridan biri Mujovir Ahmad Ziyor barcha chetdan kirib kelgan terminlarni o'zi o'ylab topgan terminlarga o'zgartiradi, pashtunlashtiradi⁴⁰. Olimning yangi terminlari iliq qarshi olinmasada tasniflashda, yangi terminlar qo'llanilishi va ularni pashtu tili grammatikasiga olib kirishi diqqatga sazovordir. Buni birgina qo'shma so'zlar tasnifida ko'rishni o'zi yetarli. Ammo M.Ziyor qo'shma so'zlarni 3 turga ajratib, (کرولغوندونه جوره) *karwalğunduna jora* 'kopulyativ', (کرولغوندونه تاکند) *karwalğunduna tākand* 'determinativ' va (غیرگون) *ğəbərgun* 'reduplikativ') ushbu turlarga izohsiz misollar berib ketish bilan kifoyalanadi xolos⁴¹.

³⁵ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – М., 1972. – 142 с.

³⁶ سيد تقويم الحق. قواعد پښتو. پېشاور، ۱۹۵۳.

³⁷ خېل بخاری. د پښتو صرف او نحو. پېشاور، ۳۵۸ ص.

³⁸ س. رشتین. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه. کابل، ۲۰۰۴.

³⁹ Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном языке пушту: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1967. – 22 с.

⁴⁰ Мерганов С. Новые слова в современном литературном языке пашту 60-80 гг. – Душанбе, 1995. – 86 с.

⁴¹ مجاور احمد زيار. پښتو پښويه. اڪسفر، ۲۰۰۵. ۲۴۰-ص.

Uning keltirgan misollar tahlili esa kopulyativ qo'shma so'zlar, kopulyativ frazeologik birliklar va erkin kopulyativ so'z birikmalari aralash holda bir guruh ichida keltirilganligini ko'rsatadi. Ushbu modeldagi misollar M.Ziyorning boshqa asarida جوړه ترنگونه⁴² *jora tarḡibuna* 'juft bog'lanishlar' nomi ostida keltirilgan, bunda ot+ot=ot modeli boshqa modellarga (sifat+sifat=sifat, ravish+ravish=ravish) qaraganda ancha ustunlikga ega ekanligini kuzatish mumkin.

M.Ziyor pashtu tilida kopulyativlar o'zi nomlagan ترلي *tarḡali* 'bog'lovchili' va ناترلي *nātarḡali* 'bog'lovchisiz' turlariga ega ekanligi haqida aytib o'tsa⁴³, S.Rishtin tomonidan mazkur bog'lovchilarning ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi د عطف *da atfi tori* 'bog'lovchi harf'⁴⁴ nomi ostida beriladi.

Pashtu tiliga oid qo'shma so'zlar bo'yicha ma'lumotlarni Akbar Ali, Muhammad Yosirxon, Bilolxonning⁴⁵ ingliz tilida chop etilgan "Pashtu tilida qo'shma so'zlar: qo'shma so'zlar tahlili va murakkab qo'shma sifat" mavzusiga bag'ishlangan maqolasida kuzatish mumkin. Ammo ushbu maqolada kopulyativ qo'shma so'zlar haqida mulohaza bildirilmagan. Shuningdek, ushbu maqolada mualliflarning o'zi pashtu tili grammatikasida standart yetishmasligi, bir qancha olimlar tadqiqot olib borgan bo'lsalarda, ayniqsa morfologiya qismi keng ko'lamda o'rganilmaganligi haqida fikr yuritishadi.

Dissertatsiyaning "Pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarni farqlash masalalari" deb nomlangan ikkinchi bobining dastlabki faslida pashtu tilidagi kopulyativ birliklarning (kopulyativ qo'shma so'zlar, kopulyativ frazeologik birliklar va erkin kopulyativ so'z birikmalari) struktur-semantik tahlili, kopulyativ qo'shma so'zlarning kopulyativ frazeologik birliklar va erkin kopulyativ so'z birikmalaridan farqlash masalalari, pashtu tilida takror so'zlarning kopulyativlik darajasi, hamda kopulyativ qo'shma so'zlarni farqlash mezonlari ochib berilgan.

Darhaqiqat, hozirgi kunda zikr etilgan kopulyativ birliklarni o'zaro farqlash, ularni farqlovchi aniq mezonlarni yaratish afg'on tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biridir. Pashtu tilida kopulyativ aloqa mavjud bo'lgan birliklar shu paytga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida guruhlariga bo'linib o'rganilmagan va maxsus tahlil mavzusiga aylanmagan. Afg'on tilshunoslari tadqiqotlarining tahlili ham pashtu tilida kopulyativ birliklar o'zaro ajratilmasligi, kopulyativ birliklarni o'zaro farqlashning aniq mezonlari ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi. Shu sababli har bir kopulyativ birlikni alohida ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Pashtu tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarni o'rganish va tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi: kopulyativ qo'shma so'zlarda uning bo'laklari semantik teng huquqli; morfologik nuqtai nazardan, ikkinchi bo'lak bosh bo'lak hisoblanadi, negaki qo'shma so'zning jinsi (rodi) aynan o'sha bo'lak bilan belgilanadi, so'zning barcha grammatik shakli ikkinchi bo'lak bilan bog'liq. Kopulyativ qo'shma so'zlarning bo'laklari yo bir-biri bilan bevosita qo'shiladi, yoki و (*u*) interfiksi yordamida bog'lanadi. Kopulyativ qo'shma so'zlarning ikkala komponenti ham bir so'z

⁴² مجاور احمد زيار. وبي پوهنه. كابل، ۱۹۸۱. ص-۲۷۸.

⁴³ مجاور احمد زيار. پښتو پښويه. اكسفرډ، ۲۰۰۵. ص-۲۵۷.

⁴⁴ ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص-۱۴۰.

⁴⁵ Akbar Ali, Muhammad Yasir Khan, Bilal Khan. Compounding in Pashto: An Analysis of Compound and Compound-Complex Adjectives. Global Language Review (GLR). Vol: II (2017). DOI: 10.31703/blr.2017(II-1).08. – 107 p.

turkumiga mansubligi kuzatildi. Imperativ shakldagi kopulyativ qo'shma so'zlarning tarkibiy qismlari semantik jihatdan teng munosabatga ega, komponentlari esa interfikssiz birikishdan (ya'ni nol bog'lanishdan) hosil bo'ladi. Modellarda komponentlarning tartibi qat'iy belgilangan, ya'ni ularning tartibini o'zgartirish semantik butunlikka putur yetkazadi. Tartibni o'zgartirish ma'noning ham o'zgarishiga olib keladi. ikki leksik morfema o'rtasida kelgan و (*u*) interfiksining -*wa-*, -*wo-* tarzida talaffuz qilinmasligi kuzatildi.

Kopulyativ qo'shma so'zlarda fonetik butunlik, tarkibiy qismlar orasida pauzaning yo'qligi, so'nggi bo'g'inga bir bosh urg'uning tushishi yoki ikkinchi bo'lakda asosiy urg'u, birinchisida esa ikkinchi darajali urg'u (asosan interfikssiz hosilalarda) borligi bilan tavsiflanadi. Pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zlarni qo'shib yoki alohida yozishning qat'iy tartib-qoidalari yo'qligi sababli orfografiya ishonchli mezon sanalmaydi, to'plangan misollardan esa ularning qo'shib, alohida yoki defis orqali yozilishini ko'rsatdi. Kopulyativ qo'shma so'zlar tarkibidagi komponentlarning joylashish tartibi, odatda, quyidagi holatlarga asoslanishi kuzatildi: 1) kam bo'g'inli, tarkibi qisqa komponent avval keladi (شنه زرغونه *šna zarġuna* 'kamalak'), 2) bo'g'in soni bir xil bo'lsa, unli tovush bilan boshlanadigan komponent avval keladi (آلو بالو *ālu-bālu* 'olxo'ri'). Undosh tovush bilan boshlanadigan komponentning unli tovush bilan boshlanadigan komponentdan avval kelishi ham kam nisbatda uchraydi (کور و اور *kor-u-or* 'mulk'), 3) har ikki komponent ham undosh tovush bilan boshlangan bo'lsa, jarangli portlovchi tovush bilan boshlanadigani avval keladi (مرگ ژوند *marg jwand* 'taqdir'). Pashtu tilida somatizmlarning birikib, kopulyativ qo'shma so'zlar hosil qilish holati ham kuzatildi. Shuningdek, tarkibiy qismlar orasidagi semantik aloqa sinonimik va antonimik xarakterda.

Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu kabi birliklar nutqda komponentlarining turg'unligi va takrorlanuvchanligi, birikmalarning semantik jihatidan ajralmasligi bilan xarakterlanadi. Pashtu tilida ham kopulyativ frazeologik birlik tuzilishiga ko'ra leksik tarkibga ega bo'lgan so'z birikmasiga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlikdir. Kopulyativ frazeologik birliklar - bir grammatik qatorga oid turg'un so'z birikmalari bo'lib, komponentlar orasida و *u* biriktiruvchi bog'lovchisining او *aw* varianti ham kuzatildi.

Kopulyativ frazeologik birliklarda misollardagi tarkibiy qismlar o'rni o'zgarmasdir, aks holda kopulyativ frazeologik birliklar yaxlitligiga putur yetadi. An'anaviy juftlashgan iboralar kopulyativ frazeologik birliklarga tegishli bo'lib, ushbu iboralarda semantika nuqtai nazaridan umumiy ma'no ularning tarkibiy qismlarining yig'indisidan kelib chiqadi (ننگ و ناموس *nang-o nāmus* 'or-nomus', بشووني او روزني *šowune aw rozane* 'ta'lim-tarbiya'). Bunday birikmalar leksik-semantik turg'unlashuv jarayonidan o'tgan hisoblanib, nominativ vazifada qo'llaniladi va birikmalarda ma'no kengaymay, umumlashish, jamlik ma'nolari ifodalanib, har ikki qismdan anglashilgan subyekt va predmetlarning umumiy nomi kelib chiqdi.

Shuningdek, bu tilda semantikasi jihatidan sinonim komponentli yoki bir-xil o'zakli so'zlarning kombinatsiyasi ishtirokidagi kopulyativ frazeologik birliklar ham

aniqlandi (سۆزى ستومانه *staray stumāna* ‘charchaganholdan toygan’; كور كاله *kor kālā* uy-uy (كاله *kālā* - كور *kor* ning vositali kelishikdagi birlik shakli), اخله واخيسته *axla waxista* olmoq-olmoq (اخيستل *axistal* fe’lining hozirgi va o’tgan zamon asosidan)). Bunday birikmalarining umumiy qiymati har bir komponentning leksik qiymatidan kelib chiqqan va ularga o’zakning umumiyliigi, undagi so’zlarning kelib chiqishi va ma’nolari yaxlitligi xosdir.

Pashtu tilidagi erkin kopulyativ so’z birikmalaridan esa quyidagi xulosalarga kelish mumkin: erkin kopulyativ so’z birikmalari tilda ma’noni kuchaytirish, urg’u berish va ta’kidlash, vaziyatni aniq tasvirlash uchun ishlatiladigan stilistik vositadir. Ular mustaqil so’zlarga erkin bo’lina oladi, har bir komponenti o’z mustaqil urg’usiga ega, tarkibiy qismlari o’zaro o’rin almashib, ma’no yaxlitligining saqlab qoladi, so’z birikmasi tarkibiy qismlari o’z mustaqil ma’nosiga ega bo’lib, tarkibiy qismlaridan har birini sinonimlar bilan erkin almashtirish imkoniyati ham mavjud (دېنت و بيابان *dašt-o biyābān*, دېنت و بيديا *dašt-o bedyā*, دېنت و مېره *dašt-o mera* ‘dasht-u biyobon’). *aw* komponentlarni bog’lashda o’z pozitsiyasini saqlaydi va sintaktik aloqaga ega. *aw* bog’lovchisi so’z turkumlaridan ot, otlashgan fe’l, olmosh hamda ravish bilan ifodalanishi misollar yordamida dalillandi.

Otning *aw* bog’lovchisi bilan birikib kelishi boshqa so’z turkumlariga nisbatan sermahsulligi kuzatildi. *aw* bog’lovchisi orqali birikayotgan so’z ko’plikda bo’lsa uning ekvivalenti ham ko’plik shaklini olishi kuzatildi. *aw* bog’lovchisi nafaqat bir-biriga ekvivalent bo’lgan so’zlarni, balki bir-biriga zid bo’lgan so’zlarni ham biriktirib erkin kopulyativ so’z birikmasini yasay olishi aniqlandi (شپه او ورخ *špa aw wradz* ‘kecha va kunduz’). Shuni ta’kidlash mumkinki, tahlilga tortilgan erkin kopulyativ so’z birikmalari: so’zlarga erkin bo’linadi, ko’pincha ikkita so’zning kombinatsiyasi hisoblanadi, semantik jihatdan aksariyati sinonim tarkibli hosiladir.

Pashtu tilida kopulyativ birliklarning tahlili natijasida kopulyativ qo’shma so’zlarning kopulyativ frazeologik birlik va erkin kopulyativ so’z birikmalariga o’xshash quyidagi belgilari aniqlandi: tarkibiy qismlarning teng bog’lanishi, aksariyati ikki tarkibiy qismdan iborat bo’lishi, komponentlarning bir xil so’z turkumi bilan ifodalanishi, ikki komponent o’rtasidagi *u* bog’lovchisining qo’llanilishi. Farqli belgilari esa quyidagicha ekanligi kuzatildi: fonetik, morfologik, semantik butunlikga ega, komponentlarning joylashish tartibi o’zgarmaydi, tarkibiy qismlari bo’linmaydi, komponentlarni bog’lovchi morfologik vositalarning bir xil emasligi, ma’no mustaqilligini saqlamaydi, komponentlardan har birini sinonim yoki antonim muqobil varianti bilan almashtirish imkoniyati yo’q.

